



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
**TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH
MILLIY AGENTLIGI**

TA'LIM DASTURINI
MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN O'TKAZISH BO'YICHA

YAKUNIY HISOBOT



**“TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO'JALIGINI
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI”
MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI**

Davlat oliy ta'lim tashkiloti

60711400 – Transport vositalari muhandisligi
Bakalavriat



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MILLIY AGENTLIGI**

60711400 – Transport vositalari muhandisligi

**TA'LIM DASTURINI MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN
O'TKAZISH BO'YICHA YAKUNIY HISOBOT**

**“TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO'JALIGINI
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI”
MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI**

(Ekspert komissiyasi xulosasi asosida)

EKSPERT KOMISSIYASI TARKIBI



Rais: ABDURAZZOQOV UMIDULLA ABDURAZZOQOVICH

Toshkent davlat transport universiteti

falsafa doktori (PhD)



A'zo: GAURAV

Jahon banki

1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

Ariza raqami	MAO260048
Xulosa raqami	947
Xulosa sanasi	29.06.2026
Ta'lim tashkilotining to'liq nomi	"TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO'JALIGINI MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI" MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI" DAVLAT MUASSASASI
Tashkilot manzili, litsenziya / identifikatsiya ma'lumotlari	Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Q.Niyoziy ko'chasi, 39-uy. Guvohnoma: MAS № 0000247, 08.07.2026.
Baholangan ta'lim dasturi nomi	Transport vositalari muhandisligi
Yo'nalish / mutaxassislik kodi	60711400
Akkreditatsiya usuli	masofaviy / joyiga chiqib

2. HUQUQIY ASOSLAR

Xulosa tayyorlanishiga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjat:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini joriy etish to'g'risida" 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom.

Maxsus davlat akkreditatsiyasi:

O'rta maxsus, kasbiy, oliy ta'limni va oliy ta'limdan keyingi ta'limni, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv jarayoni boshlanishidan oldin amalga oshiriladigan jarayon.

3. TA'LIM DASTURINING UMUMIY TAVSIFI

1. Ta'lim tashkilotining litsenziya/guvohnomasi: <i>License/Certificate of Educational Institution:</i>	MAS № 0000247, 08.07.2026
2. Ta'lim tashkilotining turi: <i>Type of Educational Institution:</i>	Davlat oliy ta'lim tashkiloti
3. Ta'lim dasturi kodi va nomi: <i>Code and Name of Study Programme:</i>	60711400 – Transport vositalari muhandisligi
4. Ta'lim dasturining ingliz tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in English:</i>	60711400 – Transport Vehicles Engineering
5. Ta'lim dasturining rus tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in Russian:</i>	60711400 – Инженерия транспортных средств
6. Hamkorlikda amalga oshirilishi: <i>Offered in Cooperation with:</i>	—
7. Ta'lim tili: <i>Medium of Instruction:</i>	o'zbek
8. Ta'lim shakli: <i>Mode of Study:</i>	kunduzgi
9. Ta'lim dasturi hajmi: <i>Study Programme Credits:</i>	240 kredit
10. Ta'lim dasturi davomiyligi: <i>Duration of Study Programme:</i>	4 yil
11. Milliy malaka ramkasidagi darajasi: <i>Level in National Qualifications Framework:</i>	6-daraja
12. Kvalifikatsiya(lar) nomi: <i>Qualification Title:</i>	Muhandis-mexanik (transport vositalariga xizmat ko'rsatish bo'yicha)
13. Qo'shimcha beriladigan kvalifikatsiyalar: <i>Additional Qualifications Awarded:</i>	—
14. Ta'lim dasturi yakunida beriladigan hujjat turi: <i>Type of Document Issued Upon Completion:</i>	Davlat namunasidagi diplom
15. Ta'lim oluvchilarning me'yoriy miqdori (to'liq davr): <i>Maximum Number of Students (full period):</i>	200 nafar
16. Ta'lim dasturini o'qitish manzili: <i>Address Where the Study Programme is Delivered:</i>	Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Q.Niyoziy ko'chasi, 39-uy

4. BAHOLASH YO'NALISHLARI VA MEZONLAR BO'YICHA NATIJALAR

Har bir yo'nalish bo'yicha baho (muvofig / muvofig emas) va har bir mezon bo'yicha baho (muvofig / qisman muvofig / muvofig emas) deb baholanadi.

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
1.	Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash	Muvofiq
1.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha tarkibiy tuzilma va uning samarali ishlash mexanizmlarining mavjudligi;*</i>	Muvofiq
1.2.	<i>ta'lim dasturini rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha 5 yillik istiqbolli rejaning mavjudligi;</i>	Muvofiq
1.3.	<i>ta'lim dasturi doirasida sifatni ichki ta'minlash mexanizmining mavjudligi hamda bu jarayonlarda manfaatdor tomonlarning ishtiroki ta'minlangani;</i>	Muvofiq
1.4.	<i>mehnat bozori va ta'lim ehtiyojlari hamda ilmiy-tadqiqotning so'nggi tendensiyalarini aniqlash bo'yicha monitoring tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
2.	Ta'lim dasturlari	Muvofiq
2.1.	<i>manfaatdor tomonlar ishtirokida ta'lim dasturining belgilangan tartibda ishlab chiqilgani. Bunda ta'lim dasturining maqsadi, natijalarining belgilangani, mehnat bozori, davlat ta'lim standarti va milliy malakalar ramkasi talablariga muvofiqligi;*</i>	Muvofiq
2.2.	<i>ta'lim dasturining milliy ta'lim tizimidagi ustuvor yo'nalishlar va xalqaro andozalar asosida ishlab chiqilgani;</i>	Muvofiq
2.3.	<i>ta'lim dasturining davomiyligi, fanlarning uzviyligi va uzluksizligi ta'minlangani;</i>	Qisman muvofiq
3.	O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash	Muvofiq
3.1.	<i>ishchi o'quv reja va dasturlarining belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqilgani;*</i>	Muvofiq
3.2.	<i>o'quv jarayonining ta'lim dasturida belgilangan o'quv natijalariga erishishga yo'naltirilgani;*</i>	Muvofiq
3.3.	<i>o'quv jarayonining doimiy baholab borilishi va takomillashtirishga qaratilgani;</i>	Muvofiq
3.5.	<i>ta'lim dasturi doirasida talabalar bilimining shaffof va xolis baholanishi, baholash jarayonlarining o'quv natijalariga muvofiqligi;</i>	Muvofiq
3.6.	<i>talabalarning baholash natijalari bo'yicha fikr-mulohazalarini olish imkoniyati mavjudligi;</i>	Muvofiq
3.7.	<i>ta'lim dasturida akademik halollik qoidalarining belgilangani va unga zid holatlarning oldini olish bo'yicha samarali tizimning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
4.	Talabalar faoliyati	Muvofiq
4.1.	<i>ta'lim dasturi bo'yicha qabul talablari aniq belgilangani, o'qishga qabul qilish shaffof tarzda yo'lga qo'yilgani;</i>	Muvofiq
4.2.	<i>qabul parametrlarining ta'lim tashkilotining resurslari va imkoniyatlariga mos kelishi;*</i>	Muvofiq
4.3.	<i>talabalarining o'qishini ko'chirish, kursdan-kursga o'tkazish (qoldirish), o'qishdan chetlashtirish va o'qishini qayta tiklash tartibining belgilangani;*</i>	Muvofiq
4.4.	<i>talabalarni qo'llab-quvvatlash va ularga maslahat berish mexanizmlarining mavjudligi;</i>	Muvofiq
5.	Inson resurslari	Muvofiq
5.1.	<i>ta'lim dasturi uchun belgilangan me'yorlarga muvofiq pedagog kadrlar, shuningdek, boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlar mavjudligi hamda ularning sifat tarkibi, malakasi va mutaxassisligi belgilangan talablarga mosligi;*</i>	Muvofiq
5.3.	<i>yangi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv rejadagi fanlarga mos (tegishli) kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha aniq rejaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq
5.4.	<i>kadrlarning kasbiy rivojlanishi va malaka oshirishiga sharoit yaratilgani, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
6.	Moddiy-texnik ta'minot	Muvofiq
6.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish uchun amaliy, laboratoriya mashg'ulotlari va kurs ishi (loyiha)ni bajarish uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar, xomashyo materiallari va boshqalarning mavjudligi hamda metodik qo'llanma (ko'rsatma)lar bilan ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.2.	<i>fanlar kesimida o'quv va o'quv-metodik adabiyotlar, elektron ta'lim resurslari bilan belgilangan talablarga muvofiq ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.3.	<i>o'quv va laboratoriya xonalari hamda ustaxona (poligon)larning talabalar sonidan kelib chiqib, ta'lim dasturlariga mos jihozlar va axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlangani hamda xavfsizlik qoidalariga rioya qilingani;*</i>	Muvofiq
6.4.	<i>inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani;</i>	Muvofiq
6.5.	<i>axborot-resurs markazining (kutubxonaning) ta'lim dasturlariga mos o'quv adabiyotlari, kompyuterlar bilan ta'minlangani, o'quv zali va elektron kutubxonaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

No	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
6.6.	<i>raqamli ta'lim muhiti yaratilgani (LMS, wi-fi zonalari, onlayn kurslar, vebinarlar va masofaviy ta'lim imkoniyatlari);</i>	Muvofiq
6.7.	<i>ta'lim dasturi xususiyatidan kelib chiqib, maxsus xona yoki bino va inshootlarining (sport zali, stadion, musiqa xonasi va boshqalarning) mavjudligi.</i>	Muvofiq

5. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA XULOSALAR

1-bob. Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash yo'nalishi

1-bob doirasida taqdim etilgan tashkiliy-huquqiy hujjatlar, boshqaruv tizimiga oid materiallar hamda ichki sifatni ta'minlash mexanizmlariga doir ma'lumotlar kompleks tahlil qilindi. O'rganishlar natijasida universitet tomonidan taqdim etilgan hujjatlar belgilangan mezonlar talablariga mos ekani hamda 60711400 – "Transport vositalari muhandisligi" bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash tizimi shakllantirilgani aniqlandi. Taqdim etilgan dalillar va asoslovchi hujjatlar mazkur ta'lim yo'nalishi doirasida aynan "Transport vositalariga xizmat ko'rsatish bo'yicha" kvalifikatsiyasini egallash uchun zarur kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilganini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, ta'lim dasturini yanada rivojlantirish maqsadida kelgusida mazkur yo'nalish bo'yicha boshqa kvalifikatsiyalar kesimida resurslar ta'minoti, professor-o'qituvchilar salohiyati, laboratoriya bazasi hamda ish beruvchilar bilan hamkorlik mexanizmlarini alohida asoslab borish maqsadga muvofiq deb topildi. Ta'lim dasturini istiqbolda rivojlantirish rejasi hamda ichki sifatni ta'minlash mexanizmlarining mavjudligi boshqaruv tizimining izchil tashkil etilganini tasdiqlaydi.

2-bob. Ta'lim dasturlari yo'nalishi

2-bob doirasida 60711400 – "Transport vositalari muhandisligi" bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha taqdim etilgan ta'lim dasturi, o'quv reja, fanlar katalogi, malaka talablari, kutilayotgan o'quv natijalari hamda kompetensiyalar tizimiga oid hujjatlar kompleks tahlil qilindi. O'rganishlar natijasida ta'lim dasturida nazariy ta'lim, amaliy mashg'ulotlar, malakaviy amaliyot va yakuniy attestatsiya o'rtasida mantiqiy izchillik ta'minlangani aniqlandi. Istiqbolli rivojlantirish rejasiga elektromobillar va gibrid avtomobillar, ADAS avtonom boshqaruv tizimlari hamda ma'lumotlarga asoslangan diagnostika kabi zamonaviy yo'nalishlarni qamrab oluvchi fanlarni kiritish

rejalashtirilgani ta'lim dasturining istiqboldagi dolzarbligini ta'minlashga xizmat qiluvchi muhim omil sifatida baholandi. Shu bilan birga, ta'lim dasturining davomiyligi, fanlarning ketma-ketligi va o'zaro uzviyligiga oid 2.3-mezon bo'yicha ayrim kamchiliklar aniqlandi. Xususan, fanlar o'rtasidagi uzviy bog'liqlik va ularning ketma-ketligini tasdiqlovchi dalillarni yanada batafsil asoslash maqsadga muvofiq deb topildi. Shuningdek, "Yo'nalishga kirish", "Avtomobil tizimlari muhandisligi" hamda "Ishonchlilik va texnik xizmat ko'rsatish muhandisligi" fanlarini TOP-300 talikka kiruvchi xorijiy oliy ta'lim muassasalari tajribasi bilan qiyosiy tahlil qilish va ushbu tajribalarni ta'lim dasturiga bosqichma-bosqich integratsiya etish tavsiya etildi. Taqdim etilgan dalillar ta'lim dasturi mazmunining asosiy talablarga javob berishini tasdiqlaydi, 2.3-mezon yuzasidan esa takomillashtirish zarurati mavjud.

3-bob. O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash yo'nalishi

3-bob doirasida 60711400 – "Transport vositalari muhandisligi" bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha o'quv jarayonini tashkil etish, mashg'ulotlarni rejalashtirish, amaliyotlarni tashkil qilish, ta'lim natijalarini baholash hamda talabalar bilimini monitoring qilishga oid hujjatlar kompleks tahlil qilindi. O'rganishlar natijasida o'quv jarayonini tashkil etish tizimi amaldagi normativ-uslubiy hujjatlar asosida shakllantirilgani, mashg'ulotlar o'quv reja, fan sillabuslari, dars jadvallari va amaliyot dasturlariga muvofiq olib borilishi aniqlandi. Talabalarning nazariy bilimlarini amaliy ko'nikmalar bilan uyg'unlashtirishga qaratilgan mexanizmlar joriy etilgani hamda ta'lim natijalarini baholash mezonlari oldindan belgilangan tartibda qo'llanilishi qayd etildi. Transport vositalari muhandisligi yo'nalishining amaliy xususiyatini inobatga olgan holda laboratoriya va ustaxona mashg'ulotlarining yetarli hajmda tashkil etilishi, texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha kasbiy kompetensiyalarni real uskuna va jihozlar bilan ishlash orqali shakllantirishning muhim omil ekani e'tirof etildi. Shuningdek, baholash tizimining shaffofligi, akademik halollik tamoyillariga rioya etilishi hamda o'quv natijalarini muntazam monitoring qilish tartiblari ta'lim sifatini ta'minlashga xizmat qilishi aniqlandi. Mazkur yondashuv ta'lim jarayonining belgilangan o'quv natijalariga erishishga yo'naltirilganini tasdiqlaydi.

4-bob. Talabalar faoliyati yo'nalishi

4-bob doirasida 60711400 – "Transport vositalari muhandisligi" bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha talabalarni qabul qilish, ularning akademik faoliyatini monitoring qilish, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, kasbiy rivojlanish hamda ma'naviy-ma'rifiy faoliyatni tashkil etishga oid hujjatlar kompleks tahlil qilindi. O'rganishlar natijasida

universitetda talabalarning akademik va shaxsiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan tizimli mexanizmlar joriy etilgani aniqlandi. Xususan, tyutorlik instituti va psixologik xizmat faoliyat yuritishi, talabalarga akademik maslahat berish, ularning o'qishdagi natijalarini monitoring qilish hamda ijtimoiy moslashuviga ko'maklashish bo'yicha amaliy ishlar yo'lga qo'yilgani qayd etildi. Tyutorlik institutining faoliyati talabalarning individual ta'lim trayektoriyasini kuzatish, yuzaga keladigan muammolarni o'z vaqtida aniqlash va ularni bartaraf etishda samarali vosita sifatida baholandi. Shuningdek, qabul parametrlari universitetning mavjud moddiy-texnik bazasi va kadrlar salohiyati bilan mutanosib ravishda belgilanganligi ham aniqlandi. Mavjud qo'llab-quvvatlash tizimi talabalar uchun qulay akademik muhitni shakllantirish va ularning kasbiy rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

5-bob. Inson resurslari yo'nalishi

5-bob doirasida 60711400 – "Transport vositalari muhandisligi" bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha inson resurslarini boshqarish, professor-o'qituvchilar tarkibini shakllantirish, kadrlar ehtiyojini rejalashtirish, malaka oshirish hamda ilmiy salohiyatni rivojlantirishga oid hujjatlar kompleks tahlil qilindi. O'rganishlar natijasida universitetda boshqaruv, professor-o'qituvchilar va o'quv-yordamchi xodimlar tarkibi ta'lim dasturining ehtiyojlaridan kelib chiqib shakllantirilgani, kadrlar salohiyatini rivojlantirish va zaxirasini yaratish bo'yicha tizimli yondashuv mavjudligi aniqlandi. Professor-o'qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish, ilmiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda malaka oshirish jarayonlari belgilangan tartib asosida amalga oshirilayotgani qayd etildi. Transport vositalari muhandisligi yo'nalishining amaliy xususiyatlarini hisobga olib, professor-o'qituvchilarning ishlab chiqarish va muhandislik sohasidagi amaliy tajribasi ta'lim natijalarining sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatishi e'tirof etildi. Shu bilan birga, ta'lim yo'nalishida mavjud kvalifikatsiyalar kesimida professor-o'qituvchilar tarkibi va ularning ixtisoslashuvini alohida asoslab borish ta'lim dasturini yanada takomillashtirishga xizmat qilishi qayd etildi. Mavjud inson resurslari tizimi ta'lim dasturining uzluksiz va sifatli amalga oshirilishini ta'minlash uchun zarur asoslarni yaratadi.

6-bob. Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi

6-bob doirasida 60711400 – "Transport vositalari muhandisligi" bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha moddiy-texnik baza, o'quv va laboratoriya infratuzilmasi hamda axborot-resurs ta'minotiga oid hujjatlar kompleks tahlil qilindi. O'rganishlar natijasida ta'lim dasturini amalga oshirish uchun zarur moddiy-texnik sharoitlar

shakllantirilgani, universitetda o'quv binolari, auditoriyalar, laboratoriyalar, ustaxonalar, kompyuter sinflari, Axborot-resurs markazi, HEMIS va LMS platformalari, sport inshootlari hamda talabalar uchun zarur infratuzilma mavjudligi aniqlandi. Ta'lim yo'nalishining amaliy xususiyatidan kelib chiqib, diagnostika uskunalari, dvigatel va uzatma stendlari, texnik xizmat ko'rsatish ustaxonalari hamda boshqa maxsus jihozlarning mavjudligi kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishning muhim omili sifatida baholandi. Shu bilan birga, transport vositalari sohasida yuz berayotgan texnologik o'zgarishlarni hisobga olib, elektromobillar, gibrid transport vositalari va ADAS tizimlariga oid laboratoriya bazasini bosqichma-bosqich kengaytirish ta'lim dasturining zamonaviy talablar bilan uyg'unligini yanada mustahkamlashi qayd etildi. Mavjud moddiy-texnik ta'minot ta'lim dasturida belgilangan amaliy va nazariy tayyorgarlikni sifatli tashkil etish uchun yetarli imkoniyat yaratadi.

6. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA ANIQLANGAN KAMCHILIKLAR VA NOMUVOFIQLIKLAR

Jiddiy kamchiliklar (akkreditatsiyaga to'sqinlik qiluvchi):

Ta'lim dasturini yo'lga qo'yish uchun to'sqinlik qiladigan jiddiy kamchiliklar aniqlanmadi

Bartaraf etilishi lozim bo'lgan juz'iy kamchiliklar:

- ✓ Ta'lim dasturining davomiyligi, fanlarning uzviyligi va uzluksizligi (2.3-mezon) qisman muvofiq deb baholandi.
- ✓ Dastur bo'yicha barcha kvalifikatsiyalar kesimida resurslar, kadrlar, laboratoriyalar va ish beruvchilar bilan hamkorlik mexanizmlarini alohida asoslash zarur.
- ✓ Elektromobil va ADAS yo'nalishlari uchun laboratoriya bazasini oldindan kengaytirish tavsiya etiladi.

7. TA'LIM DASTURINI SIFATLI TASHKIL ETISH BO'YICHA TAVSIYALAR


- ✓ Fanlar ketma-ketligi va o'zaro bog'liqligini dalillar bilan asoslash.
- ✓ "Yo'nalishga kirish", "Avtomobil tizimlari muhandisligi" va "Ishonchlilik va texnik xizmat ko'rsatish muhandisligi" fanlarini TOP-300 xorijiy oliy ta'lim muassasalari tajribasi bilan qiyosiy tahlil asosida yoritish.
- ✓ Kvalifikatsiyalar kesimida resurslar, kadrlar va laboratoriyalarni alohida asoslash.
- ✓ Diagnostika uskunalari hamda elektromobil va ADAS laboratoriya bazasini kengaytirish.

8. TA'LIM DASTURI BO'YICHA YAKUNIY XULOSA

Baholash natijalariga ko'ra, 60711400 – "Transport vositalari muhandisligi" bakalavriat ta'lim dasturi bo'yicha taqdim etilgan hujjatlar, o'quv-uslubiy materiallar, tashkiliy-boshqaruv tizimi, inson resurslari hamda moddiy-texnik ta'minot kompleks tahlil qilindi. O'rganishlar natijasida ta'lim dasturini boshqarish va sifatni ta'minlash tizimi amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar asosida shakllantirilgani, ichki sifatni monitoring qilish hamda ta'lim dasturini rivojlantirish mexanizmlari yo'lga qo'yilgani aniqlandi. Ta'lim dasturining mazmuni o'quv reja, fanlar katalogi, malaka talablari va kompetensiyalar tizimi bilan uzviy bog'langan bo'lib, nazariy ta'lim, amaliy mashg'ulotlar, malakaviy amaliyot va yakuniy attestatsiya o'rtasida izchil ketma-ketlik ta'minlangan. Dastur istiqbolini rivojlantirish doirasida elektromobillar, ADAS avtonom tizimlari hamda ma'lumotlarga asoslangan diagnostika yo'nalishlarini qamrab oluvchi fanlarni joriy etish rejalashtirilgani zamonaviy transport texnologiyalariga moslashish nuqtai nazaridan ijobiy baholandi. Talabalarni qo'llab-quvvatlash tizimi, jumladan tyutorlik instituti va psixologik xizmat faoliyati yo'lga qo'yilgan. Professor-o'qituvchilar tarkibini shakllantirish, kadrlar salohiyatini rivojlantirish va malaka oshirish bo'yicha tizimli yondashuv mavjud. Universitetda ta'lim dasturini amalga oshirish uchun zarur o'quv binolari, laboratoriyalar, ustaxonalar, Axborot-resurs markazi, HEMIS va LMS platformalari hamda boshqa infratuzilma obyektlari shakllantirilgan. Shu bilan birga, ta'lim dasturining davomiyligi, fanlar ketma-ketligi va o'zaro uzviyligiga oid 2.3-mezon bo'yicha ayrim kamchiliklar aniqlanib, mazkur indikator qisman muvofiq deb baholandi hamda uni takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar berildi. Aniqlangan kamchiliklar tavsiyaviy xususiyatga ega bo'lib, ta'lim dasturining sifatli amalga oshirilishiga salbiy ta'sir ko'rsatmaydi. Umuman olganda, ta'lim dasturi belgilangan akkreditatsiya mezonlari talablariga javob beradi va MUVOFIQ deb baholandi.

9. TA'LIM DASTURI BO'YICHA AKKREDITATSIYA KOMISSIYASI QARORI

Akkreditatsiya komissiyasi qarori sanasi:	02.07.2026
Akkreditatsiya komissiyasi bayon soni:	4-son
Yakuniy qaror:	AKKREDITATSIYADAN O'TDI



+998 55 505 30 30



info@nqaee.uz
www.nqaee.uz



@nqaeeuz



@nqaeeuzbot

